



PEDAGOGIKA TALAALARIGA UZLUKSIZ PEDAGOGIK AMALIYOTI MAHORATINI PEDAGOGIKA VA TA'LIMNING ZAMONAVIY USULLARI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY TATBIQLAR

Habibullayeva Muxlisaxon Yorqinjon qizi

*Namangan davlat pedagogika inistituti Pedagogika nazariyasi va tarix yo'nalishi 1-
kurs magistranti.*

muxlisahabiullayeva42@gmail.com

+998939142106

Annotatsiya: *Quyida keltirilgan ilmiy maqola hozirgi zamonaviy pedagogika va ta'lim olishning innovatsion usullarini keng qamrovda tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolada XXI asr ilm-fan tizimining asosiy tendentsiyalari, yangi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamlashtirilgan ta'lim platformalari hamda o'quvchi va talaba markazli yondashuvlar chuqur ko'rib chiqiladi. Tadqiqot globallasuv natijasida ta'lim paradigmalarining o'zgarishi, sun'iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi shu bilan birga, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modellarining amaliy tatbiqlarini yoritib beradi. Bu maqola pedagog kadrlar, ta'lim rahbarlari va tadqiqotchilar uchun hozirgi zamonaviy ta'lim metodologiyasini tushunish hamda amaliyotda qo'llash bo'yicha kerakli nazariy va amaliy ko'rsatmalarni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar: *zamonaviy pedagogika, innovatsion ta'lim usullari, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, o'quvchi markazli ta'lim, ta'lim paradigmalari, professional rivojlanish, ta'lim transformatsiyasi, interaktiv o'qitish.*

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, ta'lim tizimi doimo jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan. Shu jumladan, XXI asrda esa globallasuv, texnologik inqilob shu bilan birgalikda, ijtimoiy o'zgarishlar ta'lim jarayoniga tubdan yangicha qarashlarni talab etmoqda. Bilamizki, an'anaviy pedagogik yondashuvlar, garchi tarixiy ahamiyatga ega bo'lsa-da, afsuski, bugungi zamon talablariga to'liq javob bera olmaydi. Bu vaziyat ta'lim sohasida zamonaviy usullar va texnologiyalarni joriy etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Ayni paytda, mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullaridan keng qamrovda foydalanishni birinchi o'ringa qo'yimoqda. Xususan 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun ishlab chiqilgan ta'lim konsepsiyalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz jahon ta'lim standartlari darajasida mos keladigan pedagog kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirishni maqsad qilgan. Shu jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi va "Raqamli O'zbekiston — 2030" dasturi ta'lim jarayonida yangi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning muhimligi va dolzarbliligini ta'kidlaydi. Bu esa pedagog kadrlardan yangi kompetensiyalar va zamonaviy ta'lim metodlarini egallash kerakligini talab etadi.

Ushbu tadqiqot o'z oldiga aniq maqsad va vazifalarni qo'ygani. Maqsadimiz shundan iboratki, hozirgi paytda ta'lim olayotga pedagogika talabalarining zamonaviy pedagogika va ta'limning innovatsion usullaridan keng foydalanish, ularning nazariy asoslarini ochib berish hamda amaliy tatbiq yo'llarini ko'rsatib berishdir. Qolaversa ushbu maqolaning vazifalar: ta'lim paradigmalarining tarixiy rivojlanishi va uning zamonaviy holati, pedagogik texnologiyalarning tushunchasi va ularning turlari, davrning raqamli ta'lim va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zaruriyatini talab etayotgani, dars davomida pedagoglar tomonidan interaktiv hamda o'quvchi yoki talaba markazli ta'lim usullarini tatbiq etish, pedagogik kadrlarning doimo o'z ustida ishlab professional rivojlanishi va so'ngida esa, zamonaviy ta'limda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechim yo'llari.

Pedagogik paradigma - bu ta'lim va tarbiya jarayonini tushunish, tashkil etish va amalga oshirishning asosiy yondashuvidir. Hozirgi kunda zamonaviy ta'lim tizimida bir necha asosiy paradigmalar mavjud bo'lib, ularning har biri alohida ahamiyat kasb etadi.

1. An'anaviy (bilimga yo'naltirilgan) paradigma- bu paradigma XVII asrda Ya.A.Komenskiy tomonidan asoslangan bo'lib va sinf-dars tizimiga shaklida ta'lim jarayoniga kirib kelgan. Ushbu paradigmanning asosiy xususiyatlari: ushbu davrda o'qituvchi markaziy o'rinni egallagan, bilimlarni bir tomonlama uzatish jarayonida bo'lgan, standartlashtirilgan o'quv dasturlaridan foydalanilgan, natijani bilimlarga ega bo'lish orqali baholangan.

2. Fenomenologik (insonparvarlik) paradigmasi- bu yondashuv asosan o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga e'tibor qaratadi: har bir o'quvchining qobiliyati va ubig noyobligi tan olinadi, shaxsiy tajriba va his-tuyg'ular ahamiyat kasb etadi,

o'qituvchi yordamchi va yo'l boshchi sifatida ish olib boradi, bolalarning ijodiy va erkin fikrlashi rag'batlantiriladi.

3. Ratsionalistik (biheavioristik) paradigma- bu paradigma xulq-atvorga yo'naltirilgan bo'lib: aniq belgilangan maqsadlar va natijalarga qarab harakat qiladi, natijalar doimiy ravishda kuzatiladigan va o'lchanadigan hamda progressiv baholash tizimlari bilan ish olib boradigan paradigma hisolanadi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA: TUSHUNCHA VA EVOLYUTSIYASI

Bilamizki, pedagogik texnologiya XX asrning o'rtalaridan boshlab AQShda rivojlana boshlagan. 1940-1950 yillarda "ta'lim texnologiyasi" atamasi texnika vositalaridan foydalangan holatda o'qitish uchun qo'llanilgan. 1970-yillarda esa "pedagogik texnologiya" iborasi avvaldan loyihalashtirilgan hamda aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini anglatgan. Turli olimlar pedagogik texnologiyaga turlicha ta'rif berishgan: B.T.Lixachev: "Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasini belgilovchi psixologik tartiblar jamlamasidir." Yoki bo'lmasam YUNESKO: "Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi." B.L.Farberman: "Pedagogik texnologiya – bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion)



yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko'chirilgan tasviri hisoblanadi."

Pedagogik texnologiyalarning asosiy turlari mavjud bo'lib, zamonaviy pedagogika bir qator innovatsion texnologiyalarni o'z ichiga oladi:

Hamkorlik pedagogikasi- bu texnologiya o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi tenglik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan: ya'ni o'zaro hurmat va ishonch, birgalikda maqsadlarni belgilash, jamoaviy mas'uliyat, dialog va muhokama asosida o'qitish, ta'limning insonparvarlikka asoslangan texnologiyasidir.

O'quvchi shaxsiyatini rivojlantirishga qaratilgan: bunda har bir bolaning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish, ijobiy motivatsiya yaratish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, psixologik qulay muhit yaratish, o'quvchi faoliyatini faollashtirish texnologiyalari hisoblanadi.

Aktiv o'rganish metodlariga asoslangan: ya'ni muammoli o'qitish, loyihaviy o'qitish, treninglar va seminarlar o'tkazish texnologiyasidir.

Hozir kunda XXI asr pedagogikasida raqamli texnologiyalar muhim o'rin egallaydi. Ular ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga imkon yaratadi. Bilamizki, zamonaviy ta'limda quyidagi raqamli vositalar keng qo'llanilmoqda:

LMS (Learning Management System) - ta'limni boshqarish tizimlari

MOOC (Massive Open Online Courses) - ochiq onlayn kurslar

Virtual sinf xonalari - masofaviy ta'lim platformalari

Mobil o'quv ilovalari - smartfon va planshetlar uchun dasturlar

O'z navatida raqamli texnologiyalar biz yosh pedagog kadrlar uchun quyidagi imkoniyatlarni beradi: interaktiv taqdimotlar va multimedia kontentlar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar, onlayn testlar va avtomatik baholash tizimlari, adaptiv o'quv materiallaridan oson foydalanish.

Hozirda sun'iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta'limda inqilobiy o'zgarishlar yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi PQ-358-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi sun'iy intellekt texnologiyalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga integratsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Ya'ni sun'iy intellektning ta'limdagi qo'llanilishi quyidagilarga sabab bo'ladi: dastlab, shaxsiylashtirilgan ta'lim- bunda har bir talaba uchun individual o'quv rejalari tuzish, o'rganish tezligi va uslubiga moslashish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, maqsadli tavsiyalar berish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga o'qituvchining yordamchisi hisoblanadi- bunda rutina ishlarni avtomatlashtirish, testlarni avtomatik tekshirish, o'quv materiallarini tayyorlashda yordam beradi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini tahlil qilish, hamda tezlik va sifatni yaxshilashga xizmay qiladi. Faqatgina bu bilan chegaralanib qolmay kreativlikni rivojlantirishga ham o'z hissasini qo'shadi- ya'ni interaktiv o'quv muhiti yaratish, ijodiy topshiriqlar uchun yangi imkoniyatlar, virtual amaliyot va tajriba, gamifikatsiya elementlari bilan ishlaydi.

INTERAKTIV TA'LIM USULLARI

Bugungi zamonaviy ta'limda interaktiv metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va o'quv samaradorligini oshiradi. Misol uchun: loyihaviy o'qitish (Project-



Based Learning)- bu usul o'quvchilarga real muammolarni hal qilish orqali bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi: uning asosiy tamoyillar: real hayotiy muammolardan kelib chiqish, uzoq muddatli tadqiqot ishlari, mustaqil izlanish va tadqiqotlar o'tkazish, jamoaviy hamkorlik hamda natijalarni taqdim etish vazifalarini bajaradi. Uning foydali taraflari shundan iboratki, tanqidiy fikrlash rivojlanadi, muammolarni hal qilish ko'nikmalari shakllanadi, jamoa bo'lib ishlash tajribasi ortadi, mustaqillik va mas'uliyat tuyg'usi rivojlanadi.

Muammoli o'qitish (Problem-Based Learning)- bu usulda o'quvchilarga birinchi navbatda muammo taqdim etiladi va ular uni hal qilish jarayonida yangi bilimlarni o'rganadilar. Ushbu jarayon bir nechta bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Muammoni aniqlash va tushunish
2. Tadqiqot o'tkazish va ma'lumot to'plash
3. Yechimlarni ishlab chiqish
4. Yechimlarni baholash va tanlash
5. Natijalarni taqdim etish va muhokama qilish

Differensiallashgan ta'lim (Differentiated Instruction)- bu yondashuv har bir o'quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'rganish uslubiga moslashtirilgan ta'lim hisoblanadi. Asosiy komponentlar shundan iboratki: turli murakkablik darajasidagi materiallarni o'quvchining qobiliyatiga qarab taqdim etish, turli formatdagi ma'lumotlar (matn, video, audio), qo'shimcha resurslardan foydalanish. Jarayon differentsiyasida esa: turli o'rganish uslublari (vizual, audial, kinestetik), individual va guruh ishlari kombinatsiyasi, turli tezlikda o'rganish imkoniyati, turli shakllarda natija ko'rsatish, o'quvchi tanloviga moslashgan topshiriqlar, individual loyihalar va taqdimotlarni o'z ichiga oladi.

Aralash ta'lim (Blended Learning)- aralash ta'limning asosiy xususiyati u an'anaviy sinf darslari va onlayn ta'limni birlashtiradi. Bu yondashuv moslashuvchanlik va samaradorlikni oshirishga o'z hissasini qo'shadi. Uning ta'lim modellari: aylanma model (Rotation Model), stansiyali aylanish, laboratoriyali aylanish, individual aylanish. Onlayn ta'lim asosida o'qituvchi ehtiyoj bo'lganda vaqt tejashga yordam beradi.

INKLYUZIV TA'LIM VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilar, jumladan, maxsus ehtiyojli bolalar uchun tenglik va imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ta'lim turi hisoblanadi. Bu yondashuv zamonaviy ta'limning muhim tamoyillaridan biridir. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari bu: har bir bola ta'lim olish huquqiga ega, farqlanish va xilma-xillik boylik hisoblanadi, barcha o'quvchilar umumiy sinflarda birga o'rganadi, individual ehtiyojlar e'tiborga olinadi, moslashtirilgan o'quv dasturlari va metodlaridan foydalaniladi.

Zamonaviy inklyuziv ta'lim muhitida faoliyat ko'rsatish uchun o'qituvchilar ham maxsus tayyorgarlik va doimiy professional rivojlanishga muhtodir. Ularga maxsus pedagogika va psixologiya bilimlarni egallash, moslashtirilgan o'quv materiallarini yaratish ko'nikmalari, individual ta'lim rejaları (IEP) tuzish qobiliyatini shakllantirish, assistiv texnologiyalardan foydalanish, oila bilan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Professional darajada rivojlanish uchun: treninglar va seminarlar o'tkazish,



amaliyot almashinuvlarida qatnashish, mentorlik dasturlari, onlayn kurslar va vebinarlar ishlab chiqish hamda ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda. Uning asosiy yo'nalishlar:

Zamonaviy uskunalar va jihozlar bilan ta'minlangan laboratoriyalar tashkil etish

Elektron o'quv dasturlar va multimedia kontentlar yaratish

Talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish

Xorijiy tajribalarni o'rganish va joriy etish

Sirtqi ta'lim shaklini qayta ko'rib chiqish

Zamonaviy pedagog quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak: chuqur fan bilimi, fanlararo aloqalarni tushunish, yangiliklar va tendentsiyalardan xabardorlik, zamonaviy o'qitish metodlarini bilish, pedagogik texnologiyalarni qo'llay olish, o'quvchilar psixologiyasini tushunish, individual yondashuvni amalga oshirishi lozim.

ZAMONAVIY TA'LIMNING MUAMMOLARI VA YECHIMLAR

Asosiy muammolardan biri hozirgi zamonaviy ta'lim shaklida o'qituvchilarning darajasidir. Ya'ni, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklar, professional rivojlanish imkoniyatlarining cheklanganligi, yuqori ish yuki va stresslar, yangiliklar bilan hamqadam borishda qiyinchiliklar. Shu bilan birgalikda ta'lim tizimida ham muammolar yetarli: resurslar va texnik ta'minotning yetishmasligi, zamonaviy infratuzilma zarurligi, standartlar va me'yorlarni yangilash zarurligi, eski va yangi yondashuvlar o'rtasidagi ziddiyatlardir

Bunday muammolarning oldini olish uchun barcha ta'lim darajalarida izchil islohotlar o'tkazish lozim. Manbalar va resurslarni strategik taqsimlash, monitoring va baholash tizimini joriy etish, xalqaro tajribalardan o'rganish, professional rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, muntazam treninglar va malaka oshirish kurslari, mentorlik va hamkorlik dasturlari, zamonaviy metodologiya bo'yicha qo'llanmalar, o'qituvchilar uchun rag'batlantirish tizimlari joriy etish. Shu bilan birgalikda texnologik infratuzilmani rivojlantirish: zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, internet va raqamli platformalarga kirish, elektron kutubxonalar va resurslar yaratish, texnik yordam xizmatlarini tashkil etish kerak. Ta'lim jarayonida hamkorlik va integratsiyalarga tayanish: ta'lim muassasalari o'rtasida tajriba almashinuvi, oila, maktab va jamiyat hamkorligi, ilm-fan va amaliyot integratsiyasi, xalqaro hamkorlik rivojlantirishga qaratilgan.

XULOSA

Pedagogika va ta'limning zamonaviy usullari XXI asr ta'lim tizimining asosiy talab va ehtiyojlariga javob beruvchi kompleks yondashuvlarni o'z tarkibiga oladi. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

Nazariy jihatdan:

Ta'lim paradigmalarning o'zgarishi: An'anaviy bilim berish modelidan o'quvchi markazli, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmalarga o'tish davom etmoqda. Bu o'zgarish ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi.



Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi: Pedagogik texnologiyalar oddiy metodlar to'plamidan murakkab, ilmiy asoslangan, takrorlanishi mumkin bo'lgan tizimli yondashuvlarga aylanmoqda.

Amaliy jihatdan:

1. Interaktiv metodlar samaradorligi: Loyihaviy o'qitish, muammoli yondashuv, gamifikatsiya kabi zamonaviy metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va o'rganish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

2. Shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari: Zamonaviy texnologiyalar va differensiallashgan yondashuvlar har bir o'quvchining individual xususiyatlariga moslashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuralov, Y. A. (2021). ELEKTRON RAQAMLI IMZO ALGORITMLARINING QIYOSIY TAHLILI (RSA, ELGAMAL, DSA). Academic research in educational sciences, 2(5), 428-438.

2. Abdullaevich, K. Y. (2020). Development of geometric creativity of secondary school students by computer. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(2), 4572-4576.

3. Boymurodov, A. K. (2020). PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF INNOVATIVE CLUSTER METHODS IN TEACHING COMPUTER SCIENCE IN THE GENERAL SECONDARY EDUCATION SYSTEM OF TASHKENT REGION. Theoretical & Applied Science, (7), 308-311.

4. Боймурдов, А. Х. (2021 г.). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА АХБОРОТ ТЕХНООГИЯЛАРИ ВА ИНТЕРФОАЛ МЕТОДЛАР ИНТЕГРАТСИЯСИ. Академические исследования в области педагогических наук, 2 (3).

5. Abdukarimovich, G. N., & Gofurovich, A. Z. (2021). GENERAL CHARACTERISTICS OF SYSTEMS WITH REDUCED OBJECTS. WEB OF SCIENTEFIC: International scientific research journal, 2(5), 557561.

6. Boymurodov, A. (2020). INTEGRATION OF GENERAL EDUCATIONAL SCHOOLS AND HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE INNOVATIVE CLUSTER OF PEDAGOGICAL EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(8), 1-5.

7. Makhmudova, D. M., & Khurramov, A. J. (2021). Improvement of Technique of Designing and Teaching Learning Process in the course "Methods of Teaching Mathematics. International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE), 9(2), 5244-5249.

8. Melievna,, M. D., & Abdullaevich, K. Y. (2020). METHODOLOGY OF DEVELOPING CREATIVE COMPETENCE IN STUDENTS WITH PROBLEMATIC EDUCATION. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(4), 142-146.



10. Sultanov, R., & Xalmetova, M. (2021). IKKI GILDIRAKLI TRANSPORT ROBOTLARI HARAKATINI DASTURLASH. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(2), 108-114.

11. Xurramov, A. J., Boymurodov, A. K., & Xoluqulovich, J. A. (2021). EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AND THEIR QUALITY ASSESSMENT. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 8(12), 162-166.